

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11517995>

KADASTR SYOMKASINI BAJARISHDAGI TOPOGEODEZIK ISHLAR

G'ofirov Muzaffar Jumayevich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

muzaffargofirov@gmail.com

Saidov Jamshid Oribovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi

saidovjamshid544@gmail.com

***Annotatsiya:** Kadastr syomkalaridagi geodezik ishlar obyektlarning chegaralarini ayrim belgilarini, chegaralarning mahkamlanishini, burilish burchaklarini, uchastka maydonini va ularning qismlarini hamda cheklanish zonalarini o'rnatishni aniqlash maqsadida olib boriladi.*

***Kalit so'zlar:** geodeziya, kadastr, syomka, chegara, maydon, kadastr chizmasi, burilish burchagi.*

***Аннотация:** Геодезические работы по кадастровым картам проводятся с целью определения некоторых признаков границ объектов, фиксации границ, углов поворота, площади участков и их частей, а также установления зон ограничения.*

***Ключевые слова:** геодезия, кадастр, съёмка, граница, площадь, кадастровый чертеж, угол поворота.*

***Abstract:** Geodetic work on cadastral maps is carried out in order to determine some features of the boundaries of objects, fix boundaries, rotation angles, areas of plots and their parts, as well as establish restriction zones.*

***Keywords:** geodesy, cadastre, survey, border, area, cadastral drawing, rotation angle.*

KIRISH. Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, eng avvalo aholi turmush tarzi darajasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu vazifalarni samarali hal qilish yuksak ma'naviyatli, bilimli, rivojlangan davlatlar darajasidagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi bilan uzviy bog'liqdir.

Hududiy va tuman (shahar) kadastr xizmatlarining bosh maqsadi hududda yagona davlat kadastr siyosatini yuritish, viloyat iqtisodiy loyixalarini umumdavlat, yaxlit va kompleks hisobga olish, o'lardan foydalanishni xar tamonlama urganish hamda baholash, kadastr axboratni ishlab chiqish texnologiyasini doimiy ravishda takomillashtirish, tizimlashtirish, saqlash, yangilash va foydalanuvchilarga ishonchli va tejimli kuchmasmulklar kadastr axborotini berishni taminlashdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Kadastr syomkasini bajarishdagi topogeodezik ishlar ilmiy asoslarini o'rganish jarayonida quyidagi adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar o'rganib chiqildi: Jo'raqulov D.O., Raximov A.R., Eshmuratov A.E. "Bino - inshootlarni baholash va ro'yxatdan o'tkazish" bu o'quv qo'llanma kadastr syomkasini bajarishdagi topogeodezik ishlarni to'liq o'z ichiga qamrab olgan. O'quv qo'llanmada kadastr ma'lumotlarini to'g'ri ishlash, kadastr syomkasi jarayonida qo'llaniladigan geodezik asboblari, kadastr syomkasini bajarishdagi topogeodezik ishlar uchun qo'llaniladigan dasturlar keltirilgan. Bobojonov A.R., Ro'ziboyev S.B. "Aholi yashash joylari kadastr" o'quv qo'llanmasida aholi yashash joylarini to'liqligicha ro'yxatga olish ishlari yoritib berilgan. G'ofirov M.J., "Geodeziya" nomli darsligida kadastr syomkasini bajarishdagi topogeodezik ishlarni olib borishda qo'llaniladigan geodezik asboblari to'liq keltirilgan.

NATIJALAR. Geodezik ishlar umumdavlat va mahalliy shartli koordinata sistemalarida bajariladi. Buning uchun umumdavlat sistemasi bilan mahalliy va shartli koordinata sistemalari o'rtasida ishonchli bog'liqlik ta'minlangan bo'lishi kerak.

Kadastr syomka obyektlari bo'lib, qonuniy hujjatlarga yoki shahar (tuman) yer kadastr reyestr kitoblarida qayd qilingan yer uchastkalari yoki ularning qismi, yangi yer uchastkalari hisoblanadi.

Yer uchastkalarinig kadastr syomkalari quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- yer uchastkalari chegaralarini aniqlash, joylarda ko'chmas mulk obyektlarini belgilash, kartografik materiallar yig'ish va obyektning kadastr ro'yxatiga olish;
- hujjatlarni taxlash, aniq va qonunlashtirilgan yer uchastka modelini tuzish, geografik chegaralar bilan bog'lash, huquqiy ko'chmas mulk egasi bilan kelishuv ishlarini bajarish;
- hududda joylashgan boshqa yer suvoqavalarni baholash, hisobga olish, injener transport kommunikasiya va boshqa zaxiralarni aniqlash hamda kerakli ma'lumotlarni yig'gan holda, obyektning kadastr ro'yxatiga kiritilishi;
- yerdan foydalanish turlarini aniqlash, yerdan foydalanuvchi huquqi va servitutlarni o'rganish ishlarini amalga oshiradi.

MUHOKAMA. Kadastr syomkasi jismoniy yoki yuridik shaxslarning arizasiga asosan berilgan shahar yoki tuman ko'chmas mulk kadastr xizmati tomonidan bajariladi.

Arizada mazmuni, kim tomonidan berilgan, yer maydoni manzili, uning ta'rifi, maydoni, huquqiy hujjatlari va yer tug'risida boshqa ma'lumotlar kursatiladi.

Arizaga quyidagi hujjatlar nusxasi ilova qilinadi:

- huquqiy hujjat;
- yer uchastka chegarasi plani yoki sxemasi;
- kimga qarashli, servitut;
- yer uchastka ta'rifi;
- yer uchastka kadastr syomka va tayyorgarlik ishlariga oldindan to'langan kvitansiya;

Syomka bajarish obyektlari: Kadastr ro'yxatida olinadigan va baholash shart bo'lgan ko'chmas mulk va uning elementlari yer uchastkasining kadastr syomkasi obyekti bo'lib hisoblanadi.

Yer uchastkasi kadastr plani masshtablar bo'yicha tuziladi, masshtab uchastka kattaligiga va plandagi zichlikka bog'liq bo'ladi.

Yer uchastkasi kadastr plani – ma'lumot olib boruvchi qog'oz, raqamlar (elektron raqamli xaritalar), agar u normativ xujjatlar va buyurtmachi topshirish bo'yicha bajariladigan bo'lsa.

Yer uchastkasi kadastr planiga koordinatalar maksimal aniqlikda kiritiladi:

- yer uchastka chegara burilish nuqtasi;
- bino va inshootlar burchaklari;
- yer osti kommunikasiyalari chiqish joylari;

Yer uchastka kadastr planida quyidagilar ko'rsatiladi: geoaxborotlar (yer uchastka chegara burilish nuqtalar o'rtasidagi tasma uzunligi va ularning direksion burchaklari); shartli belgilar; manzil taxminan; yer uchastka syomka sanasi; plan masshtabi; maydon va kadastr raqami; yer eksplikasiyasi (kadastr kitobiga yer uchastka chegarasi chizmasi kiritilishi mumkin); yer uchastka izohi; aralash binolar izohi (manzil, nomi, aralash binolar kadastr raqami); himoyalanih zonasi, servitut zonasi; servitut haqida ma'lumotlar, huquqlar cheklangan hollar; joylarda chegara burilish nuqtalari, belgilanmagan, yer uchastka chegaralari; chegara tasmalari; ichki chegara.

XULOSA. Topografo-geodezik qidiruvlar mazmunini o'rganish, ularni umumlashtirish, taxlil qilish asosida samarali, yetarli aniqlikni ta'minlaydigan geodezik usullar tavsiya etiladi

Kadastr syomkasi ishlarini takomillashtirish jarayonida olib borilgan taxlillar, o'lchash va hisoblash ishlari natijasiga ko'ra quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- kadastr syomkasi ishlarining tannarxining, ya'ni vaqt va xarajatlar sarfini kamaytirishga va ish sifatini oshirishga erishish uchun kadastr syomkasi ishlarini takomillashtirish kerak;
- kadastr syomkasi ishlarini bajarishdagi geodezik ishlar tartibi va tarkibi aniqlanib, ularga bo'lgan talablar ko'rib chiqilishi lozim;
- kadastr syomkasini bajarishda hududning kadastr syomka navbatchi xaritalarini yarishda ArcGIS dasturidan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bobojonov A.R., Ro'ziboyev S.B. "Aholi yashash joylari kadastri", Toshkent, Tafakkur nashriyoti, 2011 y.
2. Jo'raqulov D.O., Raximov A.R., Eshmuratov A.E. "Bino - inshootlarni baholash va ro'yxatdan o'tkazish", O'quv qo'llanma, Samarqand, 2013 y.
3. G'ofirov M.J., "Geodeziya", Darslik, Qarshi "Intellekt" nashriyoti, 2023 y.
4. G'ofirov Muzaffar Jumayevich, & Nabixonov Shukrullo Alisher o'g'li. (2023). KARTOGRAFIK TASVIRLASH USULLARI ORQALI MAVZULI XARITALARNI YARATISHDA GEOAXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH. (QASHQADARYO VILOYATI QAMASHI TUMANI UMUMTA'LIM MUASSASALARI MISOLIDA). RESEARCH AND EDUCATION, 2(2), 166–173. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7693396>
5. G'ofirov Muzaffar Jumayevich, & Ulasheva Muxayyo Yusuf qizi. (2023). YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONIDA VUJUDGA KELGAN MUAMMOLAR. RESEARCH AND EDUCATION, 2(2), 174–178. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7693408>
6. G'ofirov, M. J. (2023). LAZERLI YER TEKISLAGICHLAR SUV SARFINI IQTISOD QILISH VA HOSILDORLIKNI OSHIRISHGA YORDAM BERADI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(11), 218–222. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10397394>